

# TA'LIM SIFATI: ISLOHOTLAR, MUAMMOLAR, YECHIMLAR VÀ ISTIQBOLLAR

2024



XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA  
MATERIALLARI TO'PLAMI

1

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVALAR VAZIRLIGI  
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

QO'QON UNIVERSITETI ANDIJON FILIALI

**"TA'LIM SIFATI: ISLOHOTLAR, MUAMMOLAR,  
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR"  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

**международная научно-практическая конференция  
«КАЧЕСТВО ОБРАЗОВАНИЯ: РЕФОРМЫ,  
ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ»**

**"QUALITY OF EDUCATION: REFORMS, PROBLEMS,  
SOLUTIONS AND PROSPECTS"**  
**international scientific and practical conference**

*Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami  
(5-iyun 2024-yil)  
1-qism*

УДК 337(063)  
ББК 74я431  
К30

**Редакционная коллегия:**

**Захидов Г.Э.** – доктор философии по экономическим наукам (PhD), доцент  
**Туйчиев Г.У.** – кандидат медицинских наук, доцент  
**Кодиров В.А.** – доктор педагогических наук, профессор  
**Абдуллаев У.С.** – доктор исторических наук, профессор  
**Гафуров А.А.** – доктор медицинских наук, профессор  
**Арзикулов А.Ш.** – доктор медицинских наук, профессор  
**Умаров И.Ю.** – доктор экономических наук (DcS), профессор  
**Акрамова Ф.А.** – доктор психологических наук (DcS), профессор  
**Холбоев Ю.Х.** – доктор химических наук, доцент  
**Иминов Т.Н.** – доктор философии по экономическим наукам (PhD)  
**Курбанов Б.Е.** – доктор философии по экономическим наукам (PhD)  
**Атаханов Р.С.** – доктор философии по историческим наукам (PhD)  
**Раззаков Н.А.** – доктор философии по химическим наукам (PhD), доцент  
**Курбанова Ш.А.** – доктор философии (PhD) по филологическим наукам  
**Салохиддина X.X.** – доктор философии по психологическим наукам (PhD)  
**Холбутаев Г.О.** – доктор философии (PhD) по филологическим наукам

К30

**Качество образования: реформы, проблемы, решения и перспективы=Ta’lim sifati: islohotlar, muammolar, yechimlar va istiqbollar=Quality of education: reforms, problems, solutions and prospects:** сборник материалов международной научно практической конференции (г. Андижан, 5 июня 2024 г.) / сост. Л.М.Алиев; Андижанский фил. Кокандского ун-та. — Казань: Бук, 2024. — 1000 с. — Текст: электронный.

**ISBN 978-5-907839-90-8**

**DOI: 10.5281/zenodo.12749219**

Авторские научно-практические работы раскрывают разносторонние направления исследования региональных ученых и практиков, которые вносят вклад в развитие и популяризацию науки. Содержание статей затрагивают современные тенденции, проблемы и перспективы развития региона и его отраслевой структуры, актуальные проблемы педагогической теории и практики, гуманитарные вопросы современности, опыт применения современных методов обучения и воспитания в образовании в эпоху патриотических и информационных тенденций. Издание адресовано научным сотрудникам, преподавателям, студентам, специалистам, а также широкому кругу читателей, интересующихся теорией и практикой региональной науки.

За содержание и аутентичность работ ответственность несут авторы. Мнение редакции может не совпадать с мнением авторов.

УДК 337(063)  
ББК 74я431

© “Kokand University” Андижанский филиал, 2024  
© Алиев Л.М., составление, 2024

Holmirzayev J.N., Xabibiddinova S.M.	
LEXICAL MEANS OF EXPRESSING POLITENESS IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	716
Ibrohimova M.	
PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL BASES OF USE OF DESIGNING METHODS IN THE PROCESS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES	720
Irgashev M.U.	
“БОБУРНОМА” АСАРИ НАФОСАТИГА ЭСТЕТИК ЧИЗГИЛАР	724
Исаков М.Ф.	
МИЛЛИЙ ЗАМОНАВИЙ ЎҚИТУВЧИ: ТАЪЛИМДА МАҲНАВИЙ-ЭСТЕТИК ЭХТИЁЖЛАР, ПСИХОЛОГИК ҚОНУНИЯТЛАР	730
Исаков М.Ф.	
ЭСТЕТИЧЕСКИЕ НАБРОСКИ ИСТОРИЮ ДУХОВНО - ЭСТЕТИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ЯЗЫКА ТЮРКОЯЗЫЧНЫХ НАРОДНОСТЕЙ Y - XY ВЕКОВ	733
Исаков М.Ф.	
МИЛЛИЙ ТАЪЛИМДА ЗАМОНАВИЙ УСЛУБНИ ҚАНДАЙ ТУШУНИШ МАҚСАДГА МУВОФИҚ	741
Исаков М.Ф.	
DEVELOPING ENGLISH LANGUAGE LEARNING THROUGH PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES	745
Isaqova M.A.	
TURIZM: GOSTRONOMIK SHAXARLAR	750
Isroilova G.	
PRETSEDENTLIK FENOMENI TADQIQI	751
Jalilov B.T.	
ТЕРМИНОЛОГИЯ – ВАЖНАЯ СОСТАВНАЯ ЧАСТЬ НАУКИ И ТЕХНИКИ.	755
Жалолов Ш.У.	
TURLI YOSHDAGI GURUHLARDA CHET TILI O'QITISH PRINSIPLARI	758
Jalolova M.B.	
INGLIZ TILIDA MINNATDORCHILIK BILDIRISH TURLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	761
Jo'rayev A.	
TOG'AY MUROD: OBRAZGA KO'CHGAN SHAXSIYAT, YOXUD YOZUVCHINING ESTETIK IDEALI	765
Jo'raqulov S.	
NAVOIYNI ANGLASH – BU O'ZLIKNI ANGLASH	768
Jumaniyazova I.	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ МОРФОЛОГИЧЕСКИМ НОРМАМ РУССКОГО ЯЗЫКА	771
Каримов У.Р.	
РОЛЬ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНЕ УЗБЕКИСТАНА	774
Каримова Х.И.	
TEACHING ENGLISH GRAMMAR TO UZBEK STUDENTS THROUGH INTERNET RESOURCES	777
Kattabekova B.	
СРАВНЕНИЕ В РУССКОМ И КЫРГЫЗСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ	782
Кайымова Ф.М., Курбанова М.А.	
“QISASI RABG’UZIY”DA JANNAT TASVIRI	786
Keldiyorova X.	
XALQ SHE’RIyatIDA YO'L MOTIVIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR	789
Kenjayeva M.F.	
AHMAD YASSAVIY HIKMATLARINI INTERFAOL USULLAR YORDAMIDA	792



## NAVOIYNI ANGLASH – BU O’ZLIKNI ANGLASH

### Jumaniyazova Intizor

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti  
masofaviy ta’lim fakulteti erkin tadqiqotchisi  
E-pochta: [intizor.jumaniyozova1974@gmail.com](mailto:intizor.jumaniyozova1974@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada umumta’lim maktablarida Navoiy ijodini o‘qitishning hozirgi kundagi holati haqida fikr bildirilib, mumtoz adabiyotni o‘qitishning holati, yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklar, ularning obyektiv va subyektiv sabablari, standartlar, dasturlar, darslik va metodik qo‘llanmalardagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish lozimligi maqolada aks etgan.

**Kalit so‘zlar:** Alisher Navoiy vorislari, kitobxonlik madaniyati, nazariy, didaktik, mumtoz asarlar nafosati.

**Аннотация:** В статье дается обзор современного состояния преподавания творчества Навои в общеобразовательных школах, отражается состояние преподавания классической литературы, допущенные недостатки, их объективные и субъективные причины, недостатки в стандартах, программах, учебниках и методических пособиях и необходимость их устранения.

**Ключевые слова:** преемники Алишера Навои, культура чтения, изысканность теоретических, дидактических, классических произведений.

**Abstract:** The article provides an overview of the current state of teaching Navoi creativity in secondary schools, reflects the state of teaching classical literature, the shortcomings, their objective and subjective causes, shortcomings in standards, programs, textbooks and teaching aids and the need to eliminate them.

**Key words:** Successors of Alisher Navoi, reading culture, theoretical, didactic, elegance of classical works.

Amaldagi O‘zbek adabiyotidan umumta’lim maktablari uchun dasturda ushbu predmetni o‘qitishdagi kamchiliklar tahlil qilinib, bir qator mulohazalar bildirilgan [1, 15].

O‘quvchilarning mumtoz namunalarni o‘rganishda faolligini oshirish uchun, eng avvalo, adabiyot fanining boshqa fanlardan bir qadar farqlanishi, o‘tmish namunalarining tili, uslubi, badiiy xususiyatlarini anglash qiyinchilik tug‘dirishi mumkinligini nazardan chetda qoldirmaslik kerak. Bizningcha, muktab adabiyot darslarida mumtoz asar tahlilida quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish lozim:

1. Mumtoz matndagi nazariy va didaktik tushunchalarga e’tibor qaratish;
2. Har bir o‘quvchi shaxsiga xos bo‘lgan individual xususiyatlarni inobatga olish.

Ayni paytda, filologik ta’limda yangicha yondashuvlar, zamonaviy o’sishlar kuzatilayotgan bir paytda o‘quvchilar yosh xususiyati u qadar ahamiyatga ega emasligi kuzatilmogda. Zero, chet tillarini uch-to‘rt yoshdan boshlab o‘rganishga bel bog‘lagan, ijtimoiy tarmoqlarda erkin va faol farzandlarimizni badiiy adabiyot bilan oshno qilish bilan birgalikda mumtoz asarlar nafosatini his qildirish, mazmun-mohiyatini anglatish u qadar murakkab vazifa emas. Navoiyshunos olima Dilnavoz Yusupova ta’kidlaganidek, “Alisher Navoiy darslari” maxsus fanini o‘qitishni yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyatga ega. ...bu fan “Adabiyot” fanlari tarkibida emas, balki mustaqil fan sifatida dasturga kiritilishi zarur, aks holda natija o‘zgarmaydi.... Hazrat Alisher Navoiy qoldirgan bu adabiy-ilmiy meros yana ko‘p asrlar kelajak avlod yo‘lini yorituvchi bir mayoq bo‘lib xizmat qiladi. Navoiyni anglash bu – o‘zlikni anglash, millatni anglash demak” [2, 5].

Ma’naviy sohadagi islohotlar vaqt o‘tishi bilan o‘z mevasini beradi. Mamlakatimizda ham adabiyotga milliy tilimizga bo‘lgan e’tiborni ijod maktablarining tashkil etilishi, kitobxonlik madaniyati, ijod fondining tashkil etilishida ko‘rinadi. Milliy Tiklanish demokratik partiyasi tashabbusi bilan uch yildan beri “Navoiy vorislari” loyihasi amalga oshirilib kelmoqda. Bu loyiha Respublikamiz bo‘ylab muktab o‘quvchilari orasida kamida 70 ta g‘azal biladigan, g‘azalning nasriy bayonini yarata oladigan, g‘azalda tushunish qiyin bo‘lgan so‘zlarning izohini bera oladigan, g‘azalni ifodali va bexato o‘qiydigan o‘quvchilar o‘rtasida o‘tkaziladigan tanlovga asoslangan.

Tanloving respublika bosqichida, viloyat bosqichlarida g'olib bo'lgan umumiyligi o'rta ta'limga muktablarining o'quvchilari ishtirok etadi. Ishtirokchilar eng ko'p g'azal yod olish, g'azalni bexato va ifodali o'qish, g'azal matnining nasriy bayonini yarata olish, undagi so'zlar mazmun-mohiyatini izohlab berish kabi shartlar bo'yicha o'zaro bahs olib borishadi.

Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanidagi 5-maktabning 5-sinf o'quvchisi Shaxzodaxon Rahmonova Alisher Navoiyning 57 ta g'azalini, shuningdek, shoirning yana qo'shimcha ravishda "Lison ut-tayr" (366 ming baytdan iborat) dostonini yaxlit yod olgani aniqlandi hamda uning salohiyati Navoiyshunos mutaxassislar yordamida jamoatchilik oldida yana bir bor imtihondan o'tkazildi.

Navoiyshunos olim O.Davlatov Alisher Navoiy ijodiy merosi, shaxsiyatini anglash uchun yoshlar nimalarga e'tibor berishi kerakligi xususida to'xtalib: "Navoiyni tushunishning birinchi sharti yodlashdir. Agar o'quvchi ko'proq mumtoz matnlarni yodlashga harakat qilsa, uning xotirasi shunchalik rivojlanadi va qiyin so'zlar ham yodida qolib ketadi.

Navoiyni tushunmaymiz va anglamaymiz degan savolga javob. Navoiy qachonki, bizning qalbimizga singib, ko'ngilga ko'chsagina, bizga tushunarli bo'ladi. Shunday o'quvchilar borki, ular Navoiy g'azallarini olimlardan ham yuksakroq sharhlay oladi va his etadi, o'z fikrini teran bayon eta oladi. Navoiyni o'qigan bolalar o'z fikrini aniq bayon eta oladi, chunki ularda ma'naviy immunitet paydo bo'lgan" [3, 34]. Darhaqiqat, buyuk daholarimiz, jumladan, Alisher Navoiy ijodi biz uchun juda katta ma'naviy xazinadir. Yosh avlodga adib ijodini yanada mukammalroq qilib o'rgatish zamon talabidir. Mumtoz matnlarni yodlash orqali o'rganish, matn ma'nolarini chuqurroq o'rganishga yo'l ochadi. Yodlash orqali o'quvchilarning xotirasi kuchayadi, tasavvuri kengayadi, estetik qadriyatlarni saqlash, ularga hurmat va muhabbat tuyg'ularini shakllantiradi. Maktablarda, oliygohlarda mumtoz matnlarni o'rgatishda o'quvchilarda she'riy parchalarni yodlatishga e'tiborni kuchaytirishimiz lozim.

Yurtimizda o'tmish manbalarni o'rganishga doir keng ko'lamli islohotlar olib borilayotgan bir paytda amaldagi 11-sinf yangi adabiyot darsligida mumtoz adabiyot namunalari umuman kiritilmagan, 9-sinf ijod maktablari uchun nashr etilgan adabiyot darsligida esa faqat Zahiriddin Muhammad Boburning ijodi va g'azallaridan namunalar keltirilgan xolos. Mumtoz durdonalarining o'rganilishiga kam ahamiyat berilishi, salbiy hodisalardan biri emasmi? Bu jarayon salbiy, chunki o'zbekcha fikrlaydigan, mumtoz namunalarimizni, jumladan, Navoiy dahosi merosini anglash, tushunish, sharplash, nasriy bayon etish quvvatiga ega yoshlarning kamayishiga olib kelmaydimi, vaholanki, Navoiydan 70 ta g'azal yodlagan bola uni to'liq tushunadi.

"...Maktab ta'limida adabiy kontentni qayta ko'rib chiqish va ularga yondashuv prinsiplarini o'zgartirish ehtiyoji mavjud. Xususan, g'azal janrini o'qitish masalasi jiddiy islohgaga muhtoj" [4, 4]. D.To'xliyeva ta'kidlaganidek, lirik asarni o'rganishda g'oya izlash, fikrbozlikdan qochish, adabiy-estetik didni o'stirish, badiiy go'zallikdan zavq olish va hissiyotlar tarbiyasiga intilish, shuningdek, mustaqil, erkin yondashuvga o'rgatish va obrazli fikrlashga undash kabi tendensiyalar tobora ustuvorlik kasb etmoqda. Shunga qaramay, g'azalni o'rganishda muammolarga duch kelamiz.

Savol tug'iladi: Darsliklarda berilayotgan namunalar soddallashtirilib berilishi o'qituvchi uchunmi yo bola uchunmi? Oddiy, sodda asliyatdan yiroq matn orqali o'quvchilar ma'naviyatini to'ldirish mumkinmi? Mumtoz matn tanlanayotganda darslik muallifi qaysi manbaga tayangan. O'qituvchi kasbiy kompetentligini oshirgan holda darslik bilan ishslash, mumtoz matn mazmun-mohiyatiga chuqur kirishib borish, lug'at va tushunchalar ustida ishslash, ijodkor g'oyaviy niyatini anglash, adabiy tur va janrlarni aniqlash malakasiga ega bo'lsa, adabiyot darsini mukammal tarzda tashkil etishi mumkin. Q.Yo'ldoshev, O.Madayev, A.Abdurazzoqovlar tomonidan tayyorlangan "Adabiyot o'qitish metodikasi" [5,52]; kitobida lirik asarlar tahlilida qissadan hissa chiqarish, didaktik yo'nalishda umumlashma qilishga yo'l qo'ymaslik, tahlilda shakldan mazmunga qarab borish, ifodali o'qishga ahamiyat berish, tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlarni sharplash lug'at tuzish, asar tahlilini bir darsda yakuniga to'liq yetkazish, o'quvchilar e'tiborini she'rdagi fikr va tuyg'ularning qay tarzda aks ettirilishiga qaratish lozimligi ta'kidlangan.

Bu jarayonda o'quvchi yosh xususiyati emas, o'qituvchining kreativ fikrlashi, sohaga oid boy tajribasi muhim o'rinni tutadi. Chunki to'g'ri, aniq va qiziqarli tashkil etilgan darsda o'quvchi

mavzuga sayohat qiladi, asar qahramoniga aylanadi, notanish so‘zlar bilan tanishadi va o‘z nuqtayi nazariga ega bo‘ladi.

Mumtoz janrlar mazmun-mohiyati, tuzilishi va qurilishi jihatdan bir-biridan farq qilib, qahramonlar ruhiy holati, ijodkor kayfiyati, badiiy niyatini tasviriyo vositalar orqali ifoda etadi. G‘azal janrini umumta’lim maktablarida o‘qitilishiga doir tadqiqot olib borgan D.To‘xliyevaning fikricha, g‘azal tahlilida o‘qituvchi quyidagi jihatlarga e’tibor qaratishi lozim:

**1. G‘azal tanlash.** Adabiyot darsliklarida ijodkor asarlaridan uch va undan ortiq lirk tur namunalari berilgan. Masalan, umumta’lim maktablarining 9-sinf 2019-yil nashr etilgan adabiyot darsligida “Fasli navbahor o‘ldi, ketibon zimistonlar”, “Surmadin ko‘zlar qaro, qo‘llar hinodin lolarang”, “Biz istig‘no eli, qichqirmag‘on ma‘vog‘a bormasmiz” va “Sayding qo‘yaber, sayyod” deb boshlanuvchi musaddasi o‘rin olgan. Adabiyot o‘qituvchisi Furqat she’riyati, badiiy mahorati, ijodkorlik salohiyatini ko‘rsatish, adib g‘azallarida lirk qahramon ruhiy olami, qalb kechinmalari, obrazlar surat va siyratidagi mushtaraklikni ochib berish maqsadida shoir qalamiga mansub bir g‘azalni tanlaydi. Mazkur g‘azal asosida Furqat adabiy-estetik olami, poetik niyati, o‘ziga xos san’atkorlik mahoratini o‘quvchilarga yetkazadi.

**2. G‘azalni taqdim etish.** Bu bosqichda adabiyot o‘qituvchisi g‘azal matnini o‘quvchilarga taqdim etadi. Taqdimot monitor va audio orqali amalga oshiriladi. Darslikda va monitordagi g‘azal matni o‘quvchi ko‘z o‘ngida gavdalanadi. Taqdimotda g‘azal vazni, tushunarsiz so‘zlar lug‘ati keltirilgan bo‘lishi shart.

Shuningdek, V.Qodirovning bu boradagi qarashlaridan amaliyotda iste’foda etish zarur [6, 5]. Yuqorida mulohazalarni quvvatlagan holda, lirk janrlarning ifoda usullari, tili, obrazlar tizimi, poetik ruhi jihatidan bir-biridan ajralib turadiki, tubanda ularni alohida ko‘rsatib o‘tamiz:

1. Lirk janrlarning musiqiy va ohangdorlik xususiyati.
2. Hajm jihatdan kichik janrlarga xos ixchamlilik, teranlik.
3. Estetik ta’sir kuchi yuqori bo‘lgan lirk asarlar.

Demak, lirk janrlar tahlilida voqelik, his-tuyg‘ularning badiiy ifodasiga teran yondashilinadi. Adabiy ta’limda lirk asarlarni zamонавији usulda o‘qitish orqali o‘quvchi ma‘naviy olamini boyitish, estetik tafakkurini o‘stirish imkoniyati yaratiladi. Maktablarning adabiyot darslarida o‘rganiladigan mumtoz namunalarning katta qismini lirk asarlar tashkil qiladi. Umumiyo‘rtta ta’limning adabiyot fanidan 2017-yilda tasdiqlangan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturiga ko‘ra umumta’lim maktablarida quyidagi janrlarni o‘rganish tavsiya etilgan. 2020-yil nashr etilgan 5-sinf adabiyot darsligida Bobur ruboilyari, 6-sinf 2022-yilda nashr etilgan adabiyot darsligida Avaz O‘tar g‘azallari, Navoiy ruboilyari, 2022-yilda nashr etilgan 7-sinf adabiyot darsligida Alisher Navoiyning qit‘a va fardlari, Jahon otin Uvaysiyning g‘azal va chistonlari, 2019-yilda nashr etilgan 8-sinf uchun darslikda Lutfiyning g‘azal va tuyuqlari, Alisher Navoiyning ruboiy, tuyuq va fardlari, Nodiraning g‘azallari, 2019-yilda nashr etilgan 9-sinf adabiyot darsligida Muhammad Rizo Ogahiyning g‘azallari (oldingi darsliklarda tuyuq, tarix, tarafayn, qit‘alari va “Dahr uyi bunyodkim suv uzradur mahkam emas” tarjibandi berilgan edi), Furqatning g‘azal va musaddaslar, 2022-yilda 10-sinf uchun nashr etilgan adabiyot darsligida Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” masnaviy usulda yozilgan asari, Mashrab va Ogahiy g‘azallari o‘rin olgan. Ko‘rinadiki, umumta’lim maktablarida 5-sinfdan 11-sinfgacha lirk turning sakkizta janri o‘rganilishi belgilab qo‘yilgan. G‘azal 6-, 7-, 8-, 9-, 10-, 11-sinflarda, ruboiy 5-, 6-, 8-sinflarda, tuyuq va qit‘a 7-, 8-sinflarda, chiston 7-sinfda, musaddas va masnaviy 9-,10-sinflarda. Shuningdek, tarix, tarafayn, tarjiband, murabba, muxammas kabi janrlar oldingi dasturlarga ko‘ra adabiyot darsliklariga kiritilgan edi.

Metodist olim V.Qodirov Umumta’lim maktablarida mumtoz adabiyot o‘qitishning hozirgi kundagi holati haqida fikr bildirib, mumtoz adabiyotni o‘qitilishining holati, yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklar va ularning obyektiv va subyektiv sabablari, standartlar, dasturlar, darslik va metodik hamda o‘quv qo‘llanmalardagi kamchiliklar va ularni qanday bartaraf etish lozimligini uqtiradi. “Adabiyot fanidan Davlat ta’lim standartida o‘quvchini mumtoz matn bag‘riga yetaklaydigan, matnga ma‘no berishga o‘rgatadigan nazariy ma‘lumotlarning berilishi alohida belgilab qo‘yilishi kerak. O‘quvchilarga mumtoz matnni mustaqil o‘zlashtirish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradigan ma‘lumotlar tizimi ishlab chiqilib, dastur va darsliklarda aks ettirgan holda sinfma-sinf tadrijiy tarzda berib borilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi” [7,17]. Milliy ma‘naviy

fazilatlarni shakllantirish, globallashuv jarayoniga moslashtirish, asrlar davomida shakllanib kelgan milliy qadriyatlarni asrab qolish ta'lim muassasalari oldiga qo'yilgan ustuvor vazifalardan biridir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbek adabiyotidan umumta'lim maktablari uchun dastur. (V–XI sinflar uchun). Tuzuvchi Yo'ldoshev Q. va boshq. – Toshkent: Respublika Ta'lim markazi, 2021-2022.
2. "Тил ва адабиёт таълими" Алишер Навоий дарсларини жорий етиш. 2021-йил 1-сон.
3. Давлатов О. Алишер Навоий "Маънолар хазинаси". – Тошкент: Tamaddun, 2021.
4. Тўхлиева Д. Фазал таҳлил қилиш методикаси. Тошкент: Баёз, 2023.
5. Yo'ldoshev Q., Madayev O., Abdurazzoqov.A. Adabiyot o'qitish metodikasi.Toshkent:"O'qituvchi", 1994.
6. Abdurakhmonovich, K. V. (2022). REFLECTIONS ON THE METHODOLOGY OF STUDYING ORIENTAL CLASSICAL LITERATURE. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(7).
7. Qodirov, V. (2019). Layers of meaning in classical oriental poetry. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 9(4), 72-76.
8. Yo'ldoshev, Q., Qosimov, B., Qodirov, V., & Yo'ldoshbekov, J. A. (2017). Umumiyo o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. Qayta ishlangan 4-nashri. T.:«Sharq», 368.

## **ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ МОРФОЛОГИЧЕСКИМ НОРМАМ РУССКОГО ЯЗЫКА**

**Каримов Уткирбек Рахимжон углы**

Магистрант Наманганского государственного педагогического института

**Аннотация:** Статья освещает инновационные методы в обучении морфологии русского языка, оценивая вклад интерактивных презентаций, мультимедийных средств и корпусных данных в улучшение понимания грамматических норм. Рассматривается, как визуальные и совместные задания помогают студентам лучше осваивать морфологические правила, делая учебный процесс более динамичным.

**Ключевые слова:** морфологический, русский язык, обучение, использование, интерактивный, метод.

**Abstract:** The article highlights innovative methods in teaching the morphology of the Russian language, evaluating the contribution of interactive presentations, multimedia tools and corpus data to improving the understanding of grammatical norms. It is considered how visual and collaborative tasks help students better master morphological rules, making the learning process more dynamic.

**Keywords:** morphological, Russian language, learning, use, interactive, method.

**Annotatsiya:** Maqolada interaktiv taqdimotlar, multimedia vositalari va korpus ma'lumotlarining grammatik me'yirlarni tushunishni yaxshilashga qo'shgan hissasini baholab, rus tili morfologiyasini o'qitishning innovatsion usullari yoritilgan. Vizual va hamkorlikdagi topshiriqlar talabalarga morfologik qoidalarni yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi va o'quv jarayonini yanada dinamik qiladi.

**Kalit so'zlar:** morfologik, rus tili, o'rganish, foydalanish, interaktiv, usul.

**Введение.** Изучение морфологической системы русского языка является одной из ключевых задач для студентов-филологов и преподавателей русского языка. От глубокого понимания морфологических процессов и категорий зависит не только успешность освоения основ лингвистики, но и практическое применение русского языка в речевой деятельности. Однако традиционные методы преподавания морфологии, основанные на классификациях и схематичном представлении грамматических форм, зачастую оказываются недостаточными